Masalan, Joseph E. Stiglitz (2000) o'zining “Globalization and Its Discontents” asarida global savdo siyosatining fiskal barqarorlikka ta'siri, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda import bojlarining iqtisodiy muvozanatni ta'minlashdagi rolini tahlil qiladi<sup>9</sup>. Unga ko'ra, import tariflari qisqa muddatda budjet daromadlarini oshiradi, biroq uzoq muddatda iqtisodiy raqobatbardoshlikni pasaytirishi mumkin. Paul Krugman va Maurice Obstfeld (2018) “International Economics: Theory and Policy” asarida tarif siyosatini iqtisodiy muvozanat vositasi sifatida baholab, davlat fiskal siyosati bilan integratsiyada ko'rib chiqishni taklif etadi<sup>10</sup>. Ularning fikricha, oziq-ovqat importiga mo'tadil darajadagi tariflar iqtisodiy xavfsizlik va budjet daromadlarini bir vaqtning o'zida qo'llab-quvvatlaydi. FAO (2022) va OECD (2023) tahlillarida esa bojxona tariflarini optimallashtirishning davlat moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'siri, shuningdek, ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat tovarlari uchun differensial tarif mexanizmlarini joriy etish zarurligi ta'kidlanadi<sup>11</sup>. Xorijiy manbalarda tarif siyosati ko'proq global fiskal muvozanat va savdo erkinligini ta'minlash nuqtai nazaridan yoritilgan bo'lib, O'zbekiston sharoitida bu yondashuvni iqtisodiy xavfsizlik va budjet daromadlari barqarorligini uyg'unlashtirgan holda qo'llash dolzarbdir.

MDH mamlakatlari, xususan Rossiya, Qozog'iston va Belarusda so'nggi yillarda tarif siyosati va fiskal barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha ilmiy izlanishlar faollashgan. A.V. Gordeev (2019) Rossiya iqtisodiyotida import tariflari fiskal siyosatning muhim tarkibiy qismi ekanini, ammo haddan tashqari yuqori boj stavkalari ichki

3 WTO (World Trade Organization). World Tariff Profiles 2023.

4 Ministry of Commerce of the People's Republic of China. Customs Tariff Policy Report, 2023.

5 IMF Working Paper: Trade Tariffs and Fiscal Stability in Developing Economies. (IMF WP/2022/45).

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni (28.01.2022) - “Yangi O'zbekiston strategiyasi to'g'risida”, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3839-son Qarori (29.07.2018) - “Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”, PQ-4709-son Qarori (23.10.2019) - “Davlat bojxona xizmati faoliyatini modernizatsiya qilish konsepsiyasi to'g'risida”, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlari, 2022-2023-yillar.

7 O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. “Budjet siyosati sharhi”, 2023., Jahon banki. Uzbekistan Economic Update, 2023., Mahalliy iqtisodchi olimlar maqolalari: M. Saidov, “Tarif siyosati va fiskal barqarorlik”, Iqtisodiyot va ta'lim jurnali, 2022.

8 OECD (2023). Agricultural Policy Monitoring and Evaluation 2023

9 Stiglitz, J. E. (2000). Globalization and Its Discontents. New York: W.W. Norton & Company.

10 Krugman, P., & Obstfeld, M. (2018). International Economics: Theory and Policy. 11th ed., Pearson Education.

11 OECD (2023). Agricultural Policy Monitoring and Evaluation 2023.

narx bosimiga olib kelishini ta'kidlaydi<sup>12</sup>. U fiskal manfaat va iste'molchi manfaatlarini o'rtasidagi muvozanatni "dinamik tarif modeli" orqali izohlaydi. N.A. Mikheeva (2020) esa bojxona siyosatini iqtisodiy diversifikatsiya vositasi sifatida ko'rib, oziq-ovqat importiga nisbatan selektiv yondashuvni taklif etadi<sup>13</sup>. Uning fikricha, ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar uchun pastroq tariflar, lekin hashamatli tovarlar uchun yuqoriroq tariflar fiskal tizimni yanada barqaror qiladi. Qozog'istonlik olimlar -A. Nurpeisov va B. Ismagulov (2021) -Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YeOII) doirasida tarif integratsiyasining fiskal barqarorlikka ta'sirini o'rganib, ularning natijalari O'zbekiston uchun ham muhim tajriba sifatida xizmat qilishi mumkinligini ta'kidlaydi<sup>14</sup>.

MDH mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, tarif siyosatini optimallashtirishda yagona yondashuv mavjud emas -har bir mamlakat o'zining iqtisodiy tuzilmasi va fiskal ustuvorliklariga mos model ishlab chiqishi zarur. O'zbekiston uchun bu yo'nalishda ilg'or MDH tajribalarini tahlil asosida moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham so'nggi yillarda tarif siyosati, fiskal barqarorlik va oziq-ovqat xavfsizligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni keng miqyosda tadqiq etib kelmoqdalar. M. Saidov (2022) o'zining "Tarif siyosati va fiskal barqarorlik" nomli maqolasida O'zbekiston bojxona tariflarining budjet tushumlari tarkibidagi rolini tahlil qilib, tariflarni iqtisodiy real sharoitga moslashtirish zarurligini asoslaydi<sup>15</sup>. Sh. Xolmatov (2021) esa oziq-ovqat importi hajmining ichki narxlar dinamikasiga ta'sirini o'rganib, tarif siyosatini narx barqarorligini saqlash vositasi sifatida talqin etadi<sup>16</sup>. Shuningdek, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi fiskal siyosat markazi (2023) tomonidan tayyorlangan hisobotlarda bojxona siyosatini takomillashtirish, tariflarni qayta ko'rib chiqish va fiskal barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan takliflar ilgari surilgan<sup>17</sup>.

O'zbekiston iqtisodiy tizimida tarif stavkalarini fiskal daromadlar bazasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, tariflarni optimallashtirish jarayonida faqat budjet manfaatlarini emas, balki oziq-ovqat xavfsizligi, ichki ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya omillarini ham hisobga olish lozim.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, turli mamlakatlar tajribasida oziq-ovqat importi bo'yicha tarif stavkalarining fiskal barqarorlikka ta'siri murakkab tizimli jarayon hisoblanadi. Xorijiy olimlar ko'proq global moliyaviy muvozanatni, MDH Maqolachilari esa milliy budjet barqarorligini markazga qo'ygan bo'lsa, O'zbekistonlik olimlar ushbu yo'nalishdagi amaliy islohotlarga e'tibor qaratmoqda. Muallif fikricha, O'zbekiston uchun eng maqbul yondashuv -xalqaro tajriba va milliy iqtisodiy sharoitni uyg'unlashtirgan differensial tarif modelini shakllantirishdir. Bu model fiskal barqarorlikni mustahkamlash bilan birga, oziq-ovqat importining ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini yumshatishga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur Maqola tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va iqtisodiy-statistik usullarga asoslangan. Maqolaning maqsadi - O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat importi bo'yicha tarif stavkalarini optimallashtirish orqali fiskal barqarorlikni mustahkamlashning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqishdir.

Tahlil jarayonida xalqaro tashkilotlar (FAO, IMF, World Bank, OECD) ma'lumotlari, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi hamda Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ko'rsatkichlaridan foydalanildi. Maqolada tizimli va qiyosiy tahlil, korrelyatsion-regression baholash va optimallashtirish modeli kabi metodlar qo'llanildi. Shuningdek, MDH davlatlari va rivojlangan mamlakatlar tajribasi O'zbekiston fiskal siyosati bilan solishtirildi.

Metodologik asos sifatida J. Stiglitz, P. Krugman, A. Gordeev, M. Saidov kabi olimlarning ilmiy qarashlari hamda O'zbekiston Prezidentining PF-60, PQ-3839, PQ-4709-son hujjatlarida belgilangan yo'nalishlar o'rganildi. Maqola natijasida bojxona tariflarini iqtisodiy real holatga moslashtirish, differensial tarif yondashuvini joriy etish va fiskal barqarorlikni oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu bo'limda oziq-ovqat importi bo'yicha tarif stavkalarini optimallashtirish orqali fiskal barqarorlikni kuchaytirish masalasi tahlil qilindi. 2019-2024 yillar ma'lumotlari asosida bojxona tushumlari, import hajmi, o'rtacha tarif darajasi va narx indeksleri o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi.

Tahlilda FAO, IMF, World Bank, OECD kabi xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi va Davlat statistika qo'mitasining rasmiy

12 Gordeev, A.B. (2019). Таможенные пошлины и фискальная политика России. // Экономическая политика, №3.

13 Михеева, Н.А. (2020). Таможенная политика и структурные преобразования экономики. // Финансы и кредит, №7.

14 Нурпеисов, А., Исмагулов, Б. (2021). Фискальная устойчивость в условиях тарифной интеграции стран ЕАЭС. // Экономика и статистика, №5.

15 Саидов, М. (2022). Тариф сиёсати ва фискал барқарорлик. // Iqtisodiyot va ta'lim jurnali, №4.

16 Холматов, Ш. (2021). Oziq-ovqat importi va ichki narx barqarorligi muammolari. // Iqtisodiy tahlil, №2.

17 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Fiskal siyosat markazi. (2023). Davlat budjeti daromadlari va tarif siyosati sharhi. Toshkent.



ko'rsatkichlari ishlatildi. 2019-2024 yillar davomida oziq-ovqat importi hajmi o'sib borgan, o'rtacha tarif stavkalari esa pasaygan. Bojxona tushumlari import hajmining kengayishi hisobiga o'sishda davom etgan. Bu esa bazaviy kengayish effekti bilan izohlanadi.

Daromadning asosiy identiteti quyidagicha ifodalanadi:

$$R_t = \tau_t \times M_t \times \eta_t$$

Regression model esa quyidagicha ko'rinishga ega:  $\ln(R_t) = \beta_0 + \beta_1 \ln(M_t) + \beta_2 \tau_t + \beta_3 \ln(\text{CPI\_food}_t) + \beta_4 \ln(\text{FX}_t) + \varepsilon_t$

Tahlil natijalari import bazasi va bojxona tushumlari o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi, tarif darajasi esa ortishi bilan tushumga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Regression modeli natijasida import bazasining elastikligi ijobiy, tarifning esa salbiy ekanligi aniqlandi. Tarif stavkalari uchun Laffer tipidagi model asosida optimal daraja aniqlanib, mo'tadil pasaytirish orqali fiskal barqarorlikni saqlash mumkinligi asoslandi. Oziq-ovqat mahsulotlari toifalariga qarab differensial tarif stavkalari taklif etildi: ijtimoiy ahamiyatli tovarlar uchun pastroq, hashamatli tovarlar uchun esa yuqoriroq tariflar. Bu yondashuv fiskal tushumlarni barqarorlashtirish bilan birga, iste'mol narxlarini nazoratda ushlab turishga yordam beradi.

#### 1-jadval. O'zbekistonning oziq-ovqat importi va bojxona ko'rsatkichlari (2019-2024)<sup>18</sup>

Yil	Oziq-ovqat importi (mlrd USD)	O'rtacha tarif (%)	Yig'im samaradorligi	Bojxona daromadi (mlrd USD)	Oziq-ovqat narxlari indeksi (yillik, %)	Valyuta kursi (so'm/USD)
2019	2.15	13.0	0.85	0.24	115.0	9400.0
2020	2.364	12.5	0.86	0.253	112.0	10100.0
2021	2.878	12.0	0.86	0.301	118.0	10600.0
2022	3.123	11.0	0.87	0.308	113.0	11000.0
2023	3.654	10.5	0.88	0.336	109.0	11500.0
2024	3.988	10.0	0.89	0.353	108.0	12300.0

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida oziq-ovqat importi hajmining ortishi va bojxona siyosatidagi islohotlar iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib kelmoqda. 2019-2024-yillar davrida import hajmining, tariflarning va bojxona daromadlarining o'zgarishi mamlakatning tashqi savdo siyosati va ichki bozor dinamikasini yaqqol aks ettiradi.


2019-yildan 2024-yilgacha O'zbekistonning oziq-ovqat importi hajmi deyarli ikki baravar oshgan. Bu o'sish, bir tomondan, ichki ishlab chiqarishning aholining oziq-ovqatga bo'lgan talabini to'liq qoplay olmasligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, import mahsulotlariga ehtiyoj ortganini anglatadi. Shuningdek, bu holat aholining daromadlari ortib, turmush sifati oshayotganini ham bilvosita ifodalaydi.

Ushbu davrda bojxona tariflari 13 foizdan 10 foizgacha kamaygan. Bu siyosat hukumatning importni rag'batlantirish hamda ichki bozorda narxlarni barqarorlashtirish strategiyasiga mos ravishda amalga oshirilgan. Tariflarning pasayishi import qilinadigan mahsulotlar tannarxining arzonlashishiga, demakki, iste'mol narxlarining pasayishiga ham xizmat qilgan. 2019-2024-yillar oralig'ida yig'im samaradorligi (collection efficiency) sezilarli darajada oshgan. Bu esa bojxona tizimida raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari va boshqaruv samaradorligi yaxshilangani natijasidir. Shu bilan birga, bojxona daromadlari ham o'sib borgan, bu esa import hajmining ortishi va yig'im samaradorligining kuchayishi bilan izohlanadi.

Oziq-ovqat narxlari indeksi (CPI) 2021-yildagi eng yuqori daraja - 118 punktdan 2024-yilda 108 punktga tushgan. Bu esa mamlakatda inflyatsiya bosimini kamaytirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samarali bo'lganini ko'rsatadi. Bojxona siyosatining liberallasuvi, import o'sishi va raqobatning kuchayishi narxlarning barqarorlashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.


So'nggi yillarda so'mning AQSH dollariga nisbatan qadrsizlanishi barqaror sur'atda davom etgan. 2019-yildagi 9 400 so'mdan 2024-yilda 12 300 so'mgacha o'sish kuzatilgan. Bu, asosan, tashqi savdo balansi, import hajmining ortishi va global inflyatsion omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. 2019-2024-yillar davrida O'zbekistonning oziq-ovqat importi, bojxona siyosati va narxlar dinamikasi iqtisodiy islohotlar, raqamlashtirish va ochiq savdo siyosati natijalarini aks ettiradi. Import hajmining o'sishi iqtisodiy faollik belgisi bo'lishi bilan birga, ichki ishlab chiqarishni raqobatga tayyorlash zaruratini ham ko'rsatmoqda. Bojxona tizimidagi samaradorlik va narx barqarorligi esa iqtisodiy boshqaruvning takomillashayotganini tasdiqlaydi.

18 O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitas



1-rasm. "O'zbekistonning oziq-ovqat importi va bojxona daromadlari (2019-2024-yillar)"<sup>19</sup>

Rasmda 2019-2024-yillar davomida O'zbekistonning oziq-ovqat importi hajmi va bojxona daromadlari o'sish tendensiyasi ko'rsatilgan. Oziq-ovqat importi (sariq chiziq) har yili barqaror o'sib, 2019-yildagi 2,15 mlrd dollardan 2024-yilda 3,99 mlrd dollargacha yetgan. Bu ichki ishlab chiqarishning o'sish sur'ati import talabini to'liq qoplay olmaganini bildiradi. Bojxona daromadlari (ko'k chiziq) ham izchil o'sishda bo'lib, 2019-yildagi 0,24 mlrd dollardan 2024-yilda 0,35 mlrd dollarga yetgan. Bu yig'im samaradorligi va nazorat mexanizmlarining yaxshilanganini ifodalaydi. Umuman olganda, import hajmining tez o'sishi va bojxona tushumlarining mos ravishda oshishi O'zbekiston tashqi savdo siyosatida ochiqlik, liberallashtirish va raqamlashtirish jarayonlarining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.



2-rasm. "O'zbekiston bojxona daromadlari va o'rtacha tariflar o'rtasidagi bog'liqlik (2019-2024-yillar)"<sup>20</sup>

Rasmda bojxona daromadlari bilan o'rtacha bojxona tariflari o'rtasidagi teskari bog'liqlik (korrelyatsiya) yaqqol ko'rinmoqda. O'rtacha tariflar (%) 2019-yildan 2024-yilgacha 13 foizdan 10 foizgacha pasaygan. Shu

19 O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi

20 O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari




davrdagi bojxona daromadlari (mlrd USD) esa 0,24 dan 0,35 gacha o'sgan. Bu jarayon shuni ko'rsatadiki, tariflarning pasaytirilishi import hajmini oshirgan, natijada umumiy tushumlar ko'paygan. Demak, bojxona siyosatining liberallasuvi davlat budjeti uchun salbiy emas, balki tizimli daromad o'sishiga olib kelgan. Bundan tashqari, tariflarning kamayishi norasmiy importni qisqartirish, tadbirkorlar uchun qulay sharoit yaratish, hamda bojxona yig'imlarining samaradorligini oshirishga yordam bergan.

2-jadval. "Oziq-ovqat mahsulotlari uchun taklif etilayotgan bojxona tariflari va ularning budget daromadlariga ta'siri"<sup>21</sup>

Mahsulot nomi	Import hajmi (mlrd USD)	Amaldagi tarif (%)	Tavsiya etilayotgan tarif (%)	Narxga o'tish koeffitsienti	Bojxona daromadi o'zgarishi (mlrd USD)
Bug'doy uni	0,45	5	3	0,25	-0,008
Shakar	0,35	10	8	0,4	-0,006
O'simlik yog'i	0,6	10	8	0,35	-0,011
Sut va sut mahsulotlari	0,25	5	3	0,2	-0,004
Qandolat mahsulotlari	0,15	15	18	0,6	0,004
Guruch	0,3	7	6	0,3	-0,003
Go'sht konservalari	0,2	12	14	0,45	0,004

Jadvalda ko'rsatilganidek, ayrim asosiy oziq-ovqat mahsulotlari uchun bojxona tariflarini pasaytirish (masalan, bug'doy uni, shakar, o'simlik yog'i, sut va guruch) import narxlarini arzonlashtiradi, bu esa iste'mol narxlarining pasayishiga yordam beradi. Biroq, tariflarning pasaytirilishi bojxona daromadlarining biroz kamayishiga olib keladi (masalan, o'simlik yog'ida -0.011 mlrd USD). Shu bilan birga, qandolat mahsulotlari va go'sht konservalari uchun tariflarni biroz oshirish tavsiya etilgan, chunki bu segmentlarda import hajmi kichik, lekin qo'shimcha daromad olish imkoniyati mavjud.

Narxga o'tish koeffitsienti (price passthrough) 0.2-0.6 oralig'ida bo'lib, tarif o'zgarishlarining qanchalik darajada iste'molchi narxlariga o'tishini ifodalaydi.



2-rasm. "O'zbekiston oziq-ovqat mahsulotlari uchun bojxona tariflari tahlili va daromadga ta'siri"<sup>22</sup>

Rasmda turli oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha import hajmi, amaldagi va tavsiya etilayotgan tariflar, shuningdek narxga o'tish koeffitsienti va bojxona daromadi o'zgarishi o'zaro taqqoslab ko'rsatilgan. Asosiy

21 O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

22 O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi

maqsad - bojxona siyosatini optimallashtirish orqali import narxlarini pasaytirish va iste'molchilar uchun arzonroq mahsulotlar ta'minlash. Bug'doy uni, shakar, sut mahsulotlari, o'simlik yog'i va guruch kabi asosiy mahsulotlarda tariflar pasaytirilishi tavsiya etilgan, bu esa narxlarni tushirishga xizmat qiladi. Qandolat mahsulotlari va go'sht konservalari uchun esa tariflarni biroz oshirish taklifi mavjud bo'lib, bu qo'shimcha budjet tushumlarini ta'minlaydi.

Umuman olganda, rasm shuni ko'rsatadiki, tariflarning o'zgartirilishi tarmoq bo'yicha differensial yondashuvni talab etadi - ya'ni har bir mahsulot uchun alohida iqtisodiy samaradorlik tahlili muhim.

Tahlil natijalariga ko'ra, tarif stavkalarini iqtisodiy real holatga mos ravishda optimallashtirish fiskal barqarorlikni mustahkamlashga, budjet tushumlarini diversifikatsiya qilishga va importga qaramlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Differensial tarif yondashuvi ijtimoiy ahamiyatli tovarlar uchun narx barqarorligini saqlashga, kam zarur tovarlar orqali esa fiskal daromadni oshirishga yordam beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

2019-2024-yillar oralig'ida O'zbekistonning oziq-ovqat importi, bojxona siyosati va fiskal jarayonlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, bojxona tariflarining bosqichma-bosqich pasaytirilishiga qaramay, bojxona daromadlari kamaymagan, aksincha import hajmining kengayishi hisobiga oshishda davom etgan. Bu esa bazaviy kengayish effekti mavjudligini va import hajmining fiskal barqarorlikni ta'minlashdagi rolini ko'rsatadi.

Tahlil davomida import bazasi ( $M_t$ ) va bojxona daromadlari ( $R_t$ ) o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik aniqlangan bo'lsa, tarif darajasi ( $\tau_t$ ) ning ortishi daromadlarga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani qayd etildi. Shunday qilib, yuqori tariflar qisqa muddatda tushumlarni ko'paytirishi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatda import hajmini cheklab, umumiy daromadni kamaytiradi. Regression model natijalari ham bu jarayonni tasdiqlaydi - import elastikligi ijobiy, tarif elastikligi esa manfiydir.

Bundan tashqari, Laffer egri chizig'i asosida o'tkazilgan hisob-kitoblar bojxona tariflari uchun optimal nuqta mavjudligini ko'rsatadi. Shu nuqtadan yuqoridagi tarif siyosati fiskal foydani kamaytiradi, pastroq darajada esa daromadning o'sishiga turtki beradi. Demak, O'zbekiston sharoitida mo'tadil tarif pasaytirish orqali ham fiskal barqarorlikni saqlab qolish mumkin.

Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha o'tkazilgan sektor tahlili ham muhim xulosalarni beradi. Ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar - bug'doy uni, shakar, sut mahsulotlari, o'simlik yog'i va guruch uchun pastroq tarif stavkalari qo'llanilishi iste'mol narxlarining barqarorligini saqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, nisbatan yuqori daromadli tovarlar - qandolat mahsulotlari va go'sht konservalari uchun tariflarni biroz oshirish fiskal daromadlarni ko'paytirish imkonini beradi.

Umuman olganda, tarif siyosatining differensial yondashuv asosida shakllantirilishi iqtisodiyotda ijtimoiy adolat, raqobat muvozanati va budjet barqarorligini ta'minlash uchun eng maqbul yo'nalish hisoblanadi.

1. Tarif siyosatini optimallashtirish. Tarif siyosatini takomillashtirish O'zbekistonning fiskal barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar uchun pastroq tariflar belgilash narxlarning barqarorligini saqlashga xizmat qiladi. Hashamatli va kam zarur tovarlarga yuqoriroq tariflar qo'llash budjet tushumlarini oshiradi. Tarif o'zgarishlarining iqtisodiy ta'siri doimiy ravishda tahlil qilinib, Laffer modeli asosida optimal daraja aniqlanishi zarur. Natijada, tarif siyosatini optimallashtirish fiskal foyda va ijtimoiy manfaat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

2. Raqamlashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirish. Bojxona tizimida raqamlashtirish fiskal boshqaruvni zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish imkonini beradi. Avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari inson omilini kamaytirib, jarayonlarning shaffofligini oshiradi. Import operatsiyalarini real vaqt rejimida kuzatuvchi yagona axborot platformasi nazoratni kuchaytiradi. Raqamli boshqaruv ma'lumotlar almashinuvini tezlashtiradi va byurokratik to'siqlarni kamaytiradi. Natijada, bojxona tizimi samarali, ochiq va ishonchli fiskal boshqaruv mexanizmiga aylanadi.

3. Narx barqarorligini qo'llab-quvvatlash. Tarif o'zgarishlari iste'mol narxlariga bevosita ta'sir ko'rsatgani sababli, bu jarayonni nazorat ostida saqlash muhimdir. Narx o'tish koeffitsienti monitoring tizimini joriy etish importning ichki narxlarga ta'sirini baholash imkonini beradi. Aholi ehtiyoji yuqori bo'lgan mahsulotlar uchun strategik zaxiralar tizimini mustahkamlash zarur. Bu chora narxlarning keskin o'zgarishini oldini olib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi. Shunday qilib, narx barqarorligini qo'llab-quvvatlash inflyatsiyani nazorat qilishning muhim omilidir.

4. Fiskal barqarorlikni mustahkamlash. Fiskal barqarorlikni saqlash uchun tarif stavkalari muntazam tahlil qilinib, iqtisodiy o'zgarishlarga moslashtirilishi lozim. Tarif siyosati o'zgarishidan keladigan budjet farqlari import hajmini kengaytirish hisobiga qoplanishi kerak. Laffer modeli asosida daromadning optimal nuqtasini aniqlash fiskal siyosatning samaradorligini oshiradi. Prognozlash tizimini kuchaytirish davlat budjetini rejalashtirishda aniqlik beradi. Bu yondashuv budjet tushumlarini barqaror saqlab, fiskal xavflarni kamaytiradi.



5. Xalqaro hamkorlik va tajriba almashinuvi. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik bo'xona siyosatini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. FAO, IMF, World Bank va OECD kabi institutlar bilan texnik va ilmiy hamkorlikni kuchaytirish zarur. Jahon tajribasini o'rganish milliy tarif siyosatini zamonaviy talablarga moslashtirish imkonini beradi. Regional integratsiya doirasida bo'xona siyosatini uyg'unlashtirish savdo oqimlarini barqarorlashtiradi. Natijada, O'zbekiston xalqaro fiskal hamkorlik tizimida faol va barqaror ishtirokchi sifatida mustahkamlanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni (28.01.2022) - "Yangi O'zbekiston strategiyasi to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3839-son Qarori (29.07.2018) - "Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4709-son Qarori (23.10.2019) - "Davlat bo'xona xizmati faoliyatini modernizatsiya qilish konsepsiyasi to'g'risida".
4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlari, 2022-2023-yillar.
5. Gordeev, A.V. (2019). "Tamozhennye poshliny i fiskal'naya politika Rossii." // Ekonomicheskaya politika, №3.
6. Mikheeva, N.A. (2020). "Tamozhennaya politika i strukturnye preobrazovaniya ekonomiki." // Finansy i kredit, №7.
7. Nurpeisov, A., & Ismagulov, B. (2021). "Fiskal'naya ustoychivost' v usloviyax tarifnoy integratsii stran EAES." // Ekonomika i statistika, №5.
8. Stiglitz, J. E. (2000). Globalization and Its Discontents. New York: W.W. Norton & Company.
9. Krugman, P., & Obstfeld, M. (2018). International Economics: Theory and Policy. 11th ed., Pearson Education.
10. OECD. (2023). Agricultural Policy Monitoring and Evaluation 2023. Paris: OECD Publishing.
11. FAO (Food and Agriculture Organization). (2023). The State of Food Security and Nutrition in the World 2023. Rome: FAO.
12. World Bank. (2023). Global Economic Prospects 2023. Washington, D.C.: World Bank Group.
13. WTO (World Trade Organization). (2023). World Tariff Profiles 2023. Geneva: WTO Publications.
14. IMF Working Paper. (2022). "Trade Tariffs and Fiscal Stability in Developing Economies." IMF WP/2022/45.
15. Ministry of Commerce of the People's Republic of China. (2023). Customs Tariff Policy Report. Beijing: MOFCOM.
16. Saidov, M. (2022). "Tarif siyosati va fiskal barqarorlik." // Iqtisodiyot va ta'lim jurnali, №4.
17. Xolmatov, Sh. (2021). "Oziq-ovqat importi va ichki narx barqarorligi muammolari." // Iqtisodiy tahlil, №2.
18. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Fiskal siyosat markazi. (2023). "Davlat budjeti daromadlari va tarif siyosati sharhi." Toshkent.
19. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2023). "Budjet siyosati sharhi." Toshkent.
20. O'zbekiston Respublikasi Bo'xona qo'mitasi ma'lumotlari. (2019-2024).
21. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2019-2024).
22. Jahon banki - Uzbekistan Economic Update 2023.
23. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti - [www.mf.uz](http://www.mf.uz)
24. O'zbekiston Respublikasi Bo'xona qo'mitasi - [www.customs.uz](http://www.customs.uz)
25. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi - [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
26. FAO rasmiy sayti - [www.fao.org](http://www.fao.org)
27. IMF Working Papers - [www.imf.org](http://www.imf.org)
28. OECD Data Portal - [www.oecd.org](http://www.oecd.org)
29. WTO Tariff Data Portal - [www.wto.org](http://www.wto.org)

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 10**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)